

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**



**IQTISODIY GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA ASOSLARI**  
fanining  
**O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi</b>	300 000	- Ishlab chiqarish - texnik soha
<b>Talim sohasi</b>	310 000	- Muhandislik ishi (Geodeziya, kartografiya va kadastr)
<b>Talim yo'nalishi</b>	5311500	- Geodeziya, kartografiya va kadastr (qurilish)

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

**Y.Zuxurov** – “Konchilik ishi va geodeziya” kafedrasи katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**G'.Aliqulov** – QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasи mudiri, q.x.f.n., dotsent.

**P.Qurbanov** – QarDU, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, g.f.n., dotsent.

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022-yil “\_\_\_\_\_” “\_\_\_\_\_”dagi “\_\_\_\_\_” - sonli bayonnomma).

## KIRISH

O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida har tomonlama yetuk, zamonaviy jahon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda boshqa fanlar qatori "Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari" fani ham katta o'rinn tutadi. "Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari" tanlov fan tarmog'i sifatida ikki mustaqil tarkibiy qismidan tashkil topgan. Iqtisodiy geografiya ijtimoiy ishlab chiqarishni xududiy tashkil etishni obyektiv qonuniyatlarini va o'ziga xos xususiyatlarini va ekologik iqtisodiy munosabatlarini global miqyosda turli mamlakatlar va mamlakat mintaqalari miqyosida o'rganadi.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonidagi asosiy tushuncha va qarashlar, ustuvor yo'naliishlar va xulosalarni puxta o'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatlarida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondashishlarini ta'minlash fanning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Ushbu fan iqtisodiy va ekologik jarayonlar va xodisalarni geografik ekologik va iqtisodiy jihatlarini o'rganadi. Shu munosabat bilan "Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari" fanining umumiy tadqiqot obyekti Yer sayyorasi va uning tabiiy-ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish birlashtiradi. Ushbu masalalarni amalga oshirishda ekologiya fanida o'rganiladigan mavzular va nazariy-amaliy masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir iqtisodiy obyekt – hodisa va jarayonlarda iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari fani ularning ichki va xududiy, ekologik tuzilmasi va tashqi xududiy aloqalarini qiyosiy afzallikkari va farqlari xususiyatlari kabilarni ko'rib chiqadi.

Talabalarga iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari fani bo'yicha bilimlarni berish xozirgi sharoitda dunyo va atrof xududlardagi geografik-ekologik jarayon va xodisalarni bilish, xamda to'g'ri tushunishga o'rgatish va O'zbekiston respublikasidagi mavjud muammolarini bilish va baholashga, qiyoslashga o'rgatish; dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlarida tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni taxlil qilish va ularni baholash, umumiyligini ikki darajalilik va xususiylikdan farqlash; Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari fani nazariy uslublari va bilimlaridan amaliyotda foydalanish imkoniyatini beradi.

### Fanning maqsad va vazifalari

"Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari" fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslarining nazariy va uslubiyoti bo'yicha asosiy bilimlarni shakllantirish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash bo'yicha yo'naliish ixtisosligiga mos bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iboratdir.

Fan o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- bo'lg'usi mutaxasislarga iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari bo'yicha bilimlarni berish;
- hozirgi sharoitda dunyo va atrof xududlardagi geografik-ekologik jarayon va xodisalarni bilish, xamda to'g'ri tushunishga o'rgatish;
- global mintaqaviy muammolar va O'zbekiston Respublikasidagi mavjud muammolarini bilish va baxolashga, qiyoslashga o'rgatish;
- dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlarida tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni taxlil qilish va ularni baxolash, umumiyligini ikki darajalilik va xususiylikdan farqlash;
- "Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari" fanining nazariy uslublari va bilimlaridan amaliyotda foydalanish imkoniyatini beradi.

### Fan boyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qoyiladigan talablar

"Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

1) iqtisodiy geografiyaning nazariy asoslari va ilmiy uslublarini; ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlarini, omillari va tamoyillarini; dunyo siyosiy kartasida yuz berayotgan o'zgarishlarini; jahon xo'jaligining rivojlanishi, ayrim guruh mamlakatlarining rivojlanish xususiyatlarini; xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy aloqalar va integratsiya jarayonlarini; mintaqalar va hududlar, korxonalar ekologik holatiga baho berish; aholini ekologik jihatdan himoyalash; davlat ekologik siyosatini anglash; tabiatni muhofaza qilishning xuquqiy asoslarini; tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash tizimlari va mezonlari tushunchasiga ega bo'lishi; ekologik ekspertiza va

sertifikatsiya qilish usullaridan xabardor bo‘lishi; atrof–muhitni muofaza qilishning xalqaro sifat standartlarini bilishi. O‘zbekiston mintaqalaridagi ekologik vaziyatlarni ijtimoiy tizimga ta’siri va ularni optimallashtirish ***muammolarini bilishi*** kerak;

2) mintaqalar va mamlakatlarning geografik o‘rniga, tabiiy sharoit va resurslariga iqtisodiy–geografik baho bera olish; mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari va xududiy tarkibini aniqlay olish; O‘zbekistonning yangi iqtisodiy sharoitida rivojlanish tarmoqlari tizimini takomillashtirish, tabiiy–resurs salohiyatidan oqilona foydalanish, aholi bandligi, uni ijtimoiy himoyalash, tashqi faoliyatni rivojlantirish jahbalarini anglash; ekologiyaning metodologik asoslari va ilmiy uslublarini; tabiat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini; ekologik omillar va tizimlarni; tabiatni muhofaza qilishning ekologik–iqtisodiy asoslарini; global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarini yechimlarini yechish kabi ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi*** kerak;

3) iqtisodiy–statistik ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, jadvallar tuzish, ularni iqtisodiy va geografik usullarini qo‘llab taxlil qilish; kartografik materiallardan foydalanish; ekologik uslublarini metodlarini amalda qo‘llash; atrof–muhitni asrash tadbirlarini amalga oshirishni tashkil etish; ekologik axborotni yig‘ish va taxlil qilish; sodir bo‘layotgan mahalliy ekologik muammolar yechimini; iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ekologik muammolarni xal etish tashkiliy formalarini; ayrim hudud va korxonalar miqyosdagi ekologik inqirozni yechish tadbirlarini; atrof–muhit muofazasi sohasidagi qonunlar, qarorlar va boshqa meyoriy xujjalarni; barcha olgan nazariy va amaliy bilimlarini ish faoliyatida qo‘llay olish ***malakalariga ega bo‘lish*** kerak.

### Fanning ishlab chiqarishdagi o’rni

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalari joylashishi, rivojlanishi, resurslar bilan ta’minlangan darajasi hamda ishlab chiqarish kuchlarini rayonlashtirish hamda tartibga solish “Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari” fanining tarkibiy qismlarini tashkil qiladi.

### Fanni o’qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy–pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqrli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondashuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondashuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruratini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tibor qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimning obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal

etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

**O‘qitishning usullari va texnikasi.** Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O‘qitish vositalari:** o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni, o‘quv-uslubiy majmua) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalarini.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan tezkor teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blitz-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘ylgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Iqtisodiy geografiya va ekologiya asoslari” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Excel” elektron jadvallar dasturlaridan foydalilanadi. Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idagi rasmiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan foydalilanadi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

## ASOSIY QISM

### Fan bo‘yicha ma’ruza mavzulari va ularning mazmuni

#### Iqtisodiy geografiya fanining predmeti, mazmuni, maqsadi va vazifalari

Iqtisodiy geografiya fanining obyekti, predmeti. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining nazariy va amaliy yo‘nalishlari: tarmoq va mamlakatshunoslik, hududiy va konstruktiv yo‘nalishlari. Asosiy ilmiy konsepsiyalari, tadqiqot uslublari. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining boshqa fanlar tizimidagi o‘rni, aloqalari, tarmoqlarga bo‘linishi.

#### Iqtisodiy islohotlar sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning omillari va tamoyillari

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish omillari to‘g‘risida tushuncha. Ishlab chiqarishni joylashtirishning bozor, texnika-iqtisodiy, tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy omillari. Ko‘p jihatli va majmuali omillar. Ishlab chiqarishning joylashishiga ta’sir etadigan omillar. Yangi iqtisodiy sharoitda mintaqaviy ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishni takomillashtirish muammolari.

#### Hozirgi zamon dunyo siyosiy va iqtisodiy kartasi

Dunyo siyosiy va iqtisodiy kartasi to‘g‘risida tushuncha. Dunyo siyosiy va iqtisodiy kartasi shakllanishining asosiy bosqichlari. Qadimgi, o‘rta asr dunyo siyosiy va iqtisodiy kartasi. XIV asr oxiri va XV asr boshida Temur davlati. Buyuk geografik kashfiyotlar va Yevropa, mustamlakachilik bosqichining boshlanishi. Birinchi va ikkinchi jahon urushi. Halqaro munosabatlar yangi davrining boshlanishi. Mintaqaviy mojarolar. Halqaro iqtisodiy munosabatlar va dunyoning iqtisodiy kartasi. Dunyo mamlakatlari tipologiyasi.

## **Dunyo aholisi geografiyasi**

XX asrda aholi sonining o'sishi, mamlakatlarning demografik siyosati. Materiklar va mamlakatlar bo'yicha aholining joylashishi va zichligi, notejisligining sabab va oqibatlari. Tashqi va ichki migrasiya. Dunyo aholisining jinsiy tarkibi, ayrim mamlakatlarda erkak va ayollar nisbati. Aholining yosh tarkibi va uning mehnat resurslariga ta'siri. Dunyo aholisining milliy va etnik tarkibi. Xalqlarning irqlarga bo'linishi, diniy tarkibi. Eng ko'p tarqalgan dirlar geografiyasi. Dunyoning shaxar va qishloq aholisi. Yuqori, o'rta va kam urbanizasiyalashgan mamlakatlar. Shahar aglomerasiyalari va megapolislarni boshqarish muammolari. Qishloq aholisi, qishloqlar va ularning funksional turlari. Aholi soni o'sishini bashoratlashning ahamiyati va oziq-ovqat dasturlari yechimidagi muammolar.

## **Dunyo xo'jaligi geografiyasi**

Dunyo xo'jalingining shakllanishi va uning asosiy boskichlari. Halqaro mexnat taqsimoti. Halqaro iqtisodiy integrasiya. Dunyo mamlakatlarining eng muhim iqtisodiy guruhlari. FTT va yangi texnologiyani qo'llashning dunyo xo'jalingining rivojlanishiga, tarmoq va hududiy tuzilmalariga ta'siri. Dunyo xo'jaligi tuzilmasi. Sanoatning hududiy ishlab chiqarish tuzilishiga ta'sir etuvchi omillari. Dunyo ahamiyatidagi eng muhim daryo, dengiz, quruqlik va havo yo'llari. Kaspiy va Qora dengizlararo transport aloqalar rivojlanishining istiqbollari.

## **O'zbekistonning jahon xo'jaligi tizimidagi o'rinni**

O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi. O'zbek halqi hayotida ijtimoiy yo'nalishdagi bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish yo'lidagi eng muhim voqeadir. Yangilanish va taraqqiyotning o'zbek modeli. Demokratik jarayonlar va iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy tamoyillari. Chuqur tarkibiy o'zgarishdagi yutuqlar. Iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishini qayta qurish. O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzi, O'zbekiston - turli halqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosi. Tashqi savdo aylanmasi. Iqtisodiy-geografik o'rni, maydoni va chegaralari. O'zbekistonning subregionlarni tashkil etuvchi mamlakatlar guruhiga nisbatan mezon o'rnini baxolash. O'zbekistonning ma'muriy - xududiy bo'linishi.

## **O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyati, ulardan oqilona foydalanish**

O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslariga tavsif. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-soni "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni mohiyatidan kelib chiqib tabiiy resurslardan samarali foydalanishning ilmiy asoslarini olib berish. O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ularni baholash. Resurslar bilan ta'minlanganligi to'g'risida tushuncha. Mamlakatni mineral, yer, suv, biologik, rekreasiya resurslari bilan ta'minlanganligi. Tabiiy resurslarning tarqalishi. Mamlakatda tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish xolati.

## **O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari hamda bandligi muammolari**

Demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari va demografik siyosat. Aholining jinsiy va yosh tarkibi, ularning mehnat resurslariga ta'siri. Iqtisodiy faol aholi. Savodxonlik darajasi. Aholining «sifati». Aholining ichki va tashqi migrasiysi. Shahar va qishloq aholisi. Urbanizasiya darajasi va sur'atlari. Qadimgi va yangi shaharlar. Qishloqlar joylashuvi. Aholi joylashuvini takomillashtirish va boshqarish muammolari. Demografik salohiyat va aholi muammolari. Bandlikning samarali natijalari va aholining ta'lim darajasi, kasb mahoratini oshirish muammolari.

## **O'zbekiston sanoat geografiyasi**

Sanoatning rivojlanish darajasi va sur'atlari. Tarmoq tizimidagi o'zgarishlarning hozirgi davrdagi tendensiyalari. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida tabiiy resurslardan foydalanishning xususiyatlari. Yoqilg'i-energetika sanoati joylashuvi. Yoqilg'i balansi. Gaz, neft, ko'mir sanoati – energetikaning asosi. Ularni qazib chiqarishning asosiy rayonlari. Neft va gazni qayta ishslash. Elektroenergetika. Qora metallurgiya. Rangli metallurgiya. Mashinasozlik. Avtomobilsozlik. Samolyotsozlik. Elektroradio texnika va elektronika sanoati. Mineral o'g'itlar, sulfat kislota, sintetik tola va yigirilgan ip, plastmassa, rezina, texnika, jihozlari ishlab chiqarish. Qurilish materiallari va sement sanoati. Oyna sanoati. Yengil va oziq-ovqat sanoati.

## **O‘zbekiston qishloq xo‘jalik geografiyasi**

2009-2021 yillarga mo‘ljallangan qishloq taraqqiyoti va farovonligi davlat dasturidan kelib chiqib Qishloq xo‘jaligidagi islohatlar. Yangi turdagি agrar munosabatlarning shakllanishi. Tabiiy resurs zamini. Yer fonda va uning tuzilishi. Qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasi va uning tarmoq tuzilishi. Ko‘p tarmoqlarning barakasiz (ekstensiv) xarakteri. Ixtisoslashuv. Mulkchilik shakllari va korxonalar turi. Sug‘oriladigan - yaylov chorvachiligi. Shahar atrofi qishloq xo‘jaligi. O‘simlikchilik. Ekin maydonlari tuzilishi. Yetakchi tarmoqlar, qoramolchilik, qorako‘chilik, ipakchilik. Sug‘oriladigan tekislik, cho‘l, yaylov, shahar atrofi mintaqalari qishloq xo‘jaligining rivojlanish xususiyatlari. Qishloq xo‘jalik xom-ashyolarini qayta ishslash muammolari. Bozor munosabatlari sharoitida agrar majmuuning rivojlanish istiqbollari.

## **O‘zbekiston transporti, infrastrukturasi, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi**

Transport tarmoqlarining shakllanishi, rivojlanishi va joylashishidagi iqtisodiy-geografik xususiyatlari. Temir yo‘llarning umumiy uzunligi. Avtomobil transporti. Avtomobil yo‘llarining uzunligi. Avtomobil yo‘llari tarmoqlari konfigurasiyasi. Quvur transporti va uning ahamiyati. Havo transporti. Infrastruktura. Radio, tele, sputnik aloqalarning rivojlanishi. Suv va gaz ta‘minotining mintaqaviy tizimi. Turizm va dam olish. «Buyuk Ipak yo‘li»ning qayta tiklanishi muhim halqaro turistik yo‘nalishdir. Tashqi iqtisodiy aloqalar. O‘zbekistonning halqaro iqtisodiy aloqalarining asosiy yo‘nalishlari va shakllari.

## **O‘zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari va yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalari**

Iqtisodiy rayonlashtirishning maqsadi. Rayonlashtirish nazariyasining rivojlanishi. «Rayon», «zona», «areal» tushunchalari. Iqtisodiy geografik rayon majmuasi va dinamik tushuncha ekanligi. Rayonlashtirishning differensial, strukturaviy va funksional turlari. Iqtisodiy-geografik rayonlarning asosiy ko‘rsatkichlari. O‘zbekistonni tabiiy-iqtisodiy zonalarga bo‘lish. Tabiiy-iqtisodiy zonalarga ajratishning tamoyillari. O‘zbekistonning sug‘oriladigan tekislik, cho‘l-tekislik, tog‘ oldi va tog‘ zonalariga bo‘linishi, ular rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

## **Ekologiyaning predmeti, maqsadi, uslubi va vazifalari**

Ekologiya fanining maqsadi, predmeti, tadqiqot obyekti. Ekologiya tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish, tabiiy muhitni optimallashtirish tushunchalarining talqini. Ekologiya fanining ilmiy-tadqiqot uslublari. Ekologiyaning tabiiy, ijtimoiy fanlar bilan aloqasi. Ekologiyaning tarmoqlari to‘g’risida tushuncha. Ekologiya fanining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi asosiy vazifalari. Ekologiyaning oliy malakali iqtisodchi mutaxassisliklarni tayyorlashdagi ahamiyati. Ekologiyaning tarkibi va tuzilishi.

## **Biosfera, ekologik omillar va ekologik tizimlar**

Biosfera haqida tushuncha. Biosfera haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanishi. Biosferaning chegaralari. Biosferada moddalarning aylanma harakati. Biosferadagi asosiy biogeokimyoiy tsikllar. Ekologik tizimning tuzilishi. Ekologik omillar va ularning tasnifi. Ekotizimlar tarkibi. Ekotizimlarning rivojlanishi va o‘zgarishi. Tabiatga antropogen ta’sirning miqyoslari va uning oqibatlari. Noosferaning shakllanishi va rivojlanishi. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza etish. Tabiatni muhofaza qilishning ahamiyati va vazifalari.

## **Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar**

Tabiat jamiyatning yashash muhiti, uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish manbai. Tabiiy komponentlar tushunchasi. Tabiatning bir butunligi. Tabiatda zanjir reaksiysi. Insonning tabiatga ta’siri miqyosining ortib borish sabablari. Tabiatni o‘zgartirish tushunchasi. Tabiatni inson manfaatlari uchun o‘zgartirish sohasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan tadbirlar. Tabiatni o‘zgartirishda tabiat qonunlari buzilmasining ahamiyati. Tabiatning o‘z-o‘zini tozalash va qayta tiklash qobiliyatları. Antropogen ta’sirga ekologik yondashuv. Tabiatni o‘zgartirishning ekologik oqibatlari.

## **Tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi**

Iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgarishlarida tabiatdan foydalanishning o‘ziga xosligi. Infrastrukturaning ekologik asoslari. Tabiatdan foydalanishni strategik rejalashtirish va prognozlashtirish. Tabiatdan

foydalanish jarayonlarini boshqarish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiatdan foydalanishni tubdan o'zgartirish zaruriyati. Tabiiy resurslardan foydalanganlik hamda tabiatga yetkazilgan zararlar uchun to'lovlar joriy etish. Tabiatdan oqilona foydalanish hamda ekologik sharoitni yaxshilashga erishilganligini rag'batlantirish. Infrastrukturalar rivojlanishining ekologik asoslariga e'tibor berish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiatdan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmini barpo etish va takomillashtirish muammolari.

### **Tabiat komponentlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning ekologik-iqtisodiy asoslari**

Atmosfera havosi va uni ifloslanishdan himoya qilish. Suv resurslari ifloslanishining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Orol dengizi va Orolbo'yini muammolari. Suvdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni utilizatsiyalash. Yerlarni kadastr va bonitirovkalash. Qishloq xo'jaligini ekologizatsiyalash. Biologik resurslar va ularni himoya qilish. Biologik modda almashinuvining o'ziga xosligi. yaylov degressiyasi. Davlat o'rmon fondi maydoni. O'rmonlarning tabiiy ekologik xususiyatlari.

### **Mineral xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish**

Mineral resurslarning ahamiyati, ularning klassifikatsiyasi. O'zbekistonning mineral-xom ashyo resurslari salohiyati va zahiralari. Yoqilg'i-energetika, metallurgiya, tog'-ruda, tog'-kimyo, qurilish materiallari xom ashyolar resurslari va ularning joylashishi. Mineral xom ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Resurslarni tejash va kompleks qayta ishlash. Qazib olish va foydalanish texnologiyasini takomillashtirish. Chet el mamlakatlari bilan hamkorlik. Rekultivatsiya.

### **Aholi, ekologik adaptatsiya va ekologik xavfsizlik**

Aholi – tabiiy muhit tizimi. Ekologik xavfsizlik. Tabiat muhofazasi uzlucksiz zanjirining mohiyati. Yer shari aholisi. Aholi ehtiyojlari. Oziq-ovqat muammosi. Oziq-ovqat muammosini hal qilish maqsadida atrof-muhitning o'zgartirilishi. Demografik vaziyat va jarayonlarning tabiiy ekologik muhitga ta'siri. Aholi omili va tabiat muhofazasi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari. Urbanizatsiyaning ekologik vaziyatga va inson salomatligiga ta'siri.

### **Geoekologik muammolar va ularning yechimi**

Geoekologiya to'g'risida tushuncha. Dunyo miqyosidagi geoekologik muammolar. Yer shari iqlimining isib borishi. Ozon tuynugi. Geoeologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik. Sayyoraviy va mintaqaviy geoekologik muammolar. Inson va biosfera dasturi. Xalqaro konvensiya, bitim va shartnomalar. Xalqaro tabiat muhofazasida O'zbekistonning o'rni. Ekologik monitoring va prognozning ahamiyati.

### **O'zbekistonda tarkib topgan ekologik vaziyatlar va ekologik xavfsizlikni ta'minlash**

O'zbekistonning o'ziga xos ekologik vaziyatlari va ekologik xavfsizlik. O'zbekiston hududiga antropogen ta'sirning tarixiy-iqtisodiy o'zgarib borishi. Sanoatning rivojlanishi va joylashishi bilan bog'liq antropogen o'zgarishlar. O'zbekiston cho'l, adir, tog' mintaqalarining jadal o'zgartirilishi. Deflyatsiya. Avtomobil, temir yo'l, quvur transportining tabiat ifloslanishiga ta'siri. Orol va Orolbo'yini, Farg'ona, Chirchiq-Ohangaron, Zarafshon va Surxondaryo vodiylarida vujudga kelgan keskin ekologik vaziyatlar. Ekologik tushkunlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

### **Amaliy mashg'ulotlarni tahminiy ro'yxati**

1. Iqtisodiy geografiya fanining predmeti, mazmuni, maqsadi va vazifalari.
2. Iqtisodiy islohotlar sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning omillari va tamoyillari
3. Hozirgi zamon dunyo siyosiy va iqtisodiy kartasi.
4. Dunyo aholisi geografiysi.
5. Dunyo xo'jaligi geografiysi.
6. O'zbekistonning jahon xo'jaligi tizimidagi o'rni.
7. O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyati, ulardan oqilona foydalanish.
8. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari hamda bandligi muammolari.

9. O‘zbekiston sanoat geografiyasi.
10. O‘zbekiston qishloq xo‘jalik geografiyasi.
11. O‘zbekiston transporti, infrastruktura, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi.
12. O‘zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari va yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalari.
13. Ekologiyaning predmeti, maqsadi, uslubi va vazifalari.
14. Biosfera, ekologik omillar va ekologik tizimlar.
15. Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar.
16. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi.
17. Tabiat komponentlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning ekologik-iqtisodiy asoslari.
18. Mineral xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish.
19. Aholi, ekologik adaptatsiya va ekologik xavfsizlik.
20. Geoekologik muammolar va ularning yechimi.
21. O‘zbekistonda tarkib topgan ekologik vaziyatlar va ekologik xavfsizlikni ta’minlash.

### **Laboratoriya ishlarini tashkil etish boyicha ko’rsatmalar**

Fan boyicha laboratoriya ishlari namunaviy o‘quv rejada ko’rsatilmagan

### **Kurs ishini tashkil etish boyicha ko’rsatmalar**

Fan boyicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejada ko’rsatilmagan

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi - o‘qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzular bo‘yicha axborot (referat, taqdimot) tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanning bo‘lim yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o‘quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanning bo‘lim va mavzularini chuqur o‘rganish;
- keys-stadilar va o‘quv loyihalarini mustaqil bajara olish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalilaniladigan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish;
- ilmiy maqola, tezislar, turli ilmiy anjumanlarga ma’ruza tayyorlash va h.k.

Mustaqil ishni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko’rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyatlari masalalar to‘plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha amaliy topshiriq, keys-stadilar yechish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

### **Tavsiya etiladigan mustaqil ishlarning mavzulari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni mohiyatidan kelib chiqib belgilangan ustuvor vazifalar.
2. Iqtisodiy geografiya fanining vujudga kelishi.
3. Fanning asosiy tamoyillari.
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot usullari.
5. Iqtisodiy geografiyaning bosh tushunchalari: geografik o‘rin, iqtisodiy rayon, hududiy majmualar va boshqalar.
6. Jahondagi demografik vaziyat va uning mintaqaviy xususiyatlari.
7. Hozirgi zamon dunyo siyosiy va iqtisodiy kartasini o‘zgarish xususiyatlari.
8. Jahon davlatlarining iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rni.
9. Dunyo xo‘jaligi geografiyasini tarkibi va xududiy jolashishi.
10. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirishga ta’siri.

11. Iqtisodiy islohatlar sharoitida O‘zbekistonning jahon xo‘jaligi tizimidagi o‘rni.
12. O‘zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda iqtisodiy geografik bilimlarning roli.
13. O‘zbekistonning tabiiy resurs salohiyati, ulardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish.
14. O‘zbekiston aholisi va mexnat resurslari, ular bandligi muammolari.
15. O‘zbekiston sanoat geografiyasi.
16. Iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishlar sharoitida, O‘zbekiston transporti, infrastruktura, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi.
17. O‘zbekistonning geografik rayonlari va yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalari.
18. Global muammolar.

### **Dasturning informatsion - uslubiy ta’minoti**

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamонавиј ilg‘or interfaol usullаридан, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarining prezентasiya (taqdimot), multimedia va elektro-didaktik texnologiyалardan foydalанилди. Amaliy mashg‘ulotlarda aqliy hujum, klaster, blis-so‘rov, guruh bilan ishslash, insert, taqdimot, keys-stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalанилди.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar royxati** *Asosiy adabiyotlar:*

1. Abirqulov Q.N. Iqtisodiy geografiya, Darslik T.: 2004. -282 bet.
2. Abirqulov Q.N., Xojimatov A.N., Rajabov N. Ekologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Yozuvchilar uyushmasi”, 2006. – 185 bet.
3. Soliyev A., Mahamadaliyev R. Iqtisodiy geografiya asoslari. T.: O‘zbekiston, 2002. - 233 bet.
4. Ergashev A. Ekologiya. Darslik. – T.: “O‘zbekiston”, 2007. – 248 bet.
5. Nigmanov E. Iqtisodiy geografiya (jadvalarga): O‘quv qo‘llanma. –T. Cho’lpon, 2016. -308 b.

### **Qo’shimcha adabiyotlar:**

1. Alayev E.B. Sotsialno-ekonomicheskaya geografiya. Ponyatiyno- terminologicheskiy slovar. - M., 1980.
2. Asanov G.R. Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug‘ati. –T., 1990.
3. Baranskiy N.N. Nauchniye prinsipi geografii. Izbr. trudi. –M., 1980.
4. Djonson R.Dj. Geografiya i geografi. –L., 1989.
5. Soliyev A.S. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari-T., 1995.
6. Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari.-T., 1999.
7. Soliyev A., Jumaxonov SH., Mirzaaxmedov X. Qo’shma korxonalar geografiyasi. –Namangan, 2006.
8. Soliyev A., Komilova N. Tibbiyat geografiyasi. -T.:Istiqlol, 2005.
9. Saliyev A., Yanchuk S. Razmesheniye proizvoditelinx sil i polyarizovannoye razvitiye ekonomiki Respublikи Uzbekistan (elektronniy variant uchebnogo posobiya).-T.,2005.

### **Internet saytlari**

1. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
4. [www.ser.uz](http://www.ser.uz)
5. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

8. [www.economics.ru](http://www.economics.ru)
9. [www.ekonomgeo.ru](http://www.ekonomgeo.ru)
10. [www.grandars.ru](http://www.grandars.ru)
11. [www.ecoross.ru](http://www.ecoross.ru)
12. [www.geogr.msu.ru](http://www.geogr.msu.ru)